



DEVELOPMENT OF MEDICAL INFRASTRUCTURE AND THE ACTIVITIES OF HOSPITALS IN UZBEKISTAN DURING WORLD WAR II

Alisher Bozorovich Parnomov

History teacher and researcher,

General Secondary School No. 75

Email: alisher260380@gmail.com

Shahrisabz, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Second World War, Uzbek SSR, medical infrastructure, hospitals, evacuation, healthcare, sanitation, epidemic, Kashkadarya, front.)

Received: 04.10.25

Accepted: 05.10.25

Published: 06.10.25

Abstract: During the Second World War, the medical infrastructure in the Uzbek SSR developed significantly. The evacuation of millions of people and hundreds of enterprises required a reorganization of the healthcare system. More than one hundred military hospitals were established, serving wounded soldiers and the evacuated population. Both local doctors and evacuated medical workers participated in hospital operations. The number of hospitals and hospital beds increased, while sanitary measures helped to prevent epidemics. The example of Kashkadarya region highlights the role of mobile medical units and front assistance committees.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEKISTONDA TIBBIY INFRATUZILMANING RIVOJLANISHI VA GOSPITALLAR FAOLIYATI

Alisher Bozorovich Parnomov

Shahrisabz tumani 75-sonli umumiy

o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi, tadqiqotchi

mail: alisher260380@qmail.com

Shahrisabz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, O'zbekiston SSR, tibbiy infratuzilma, gospitallar, evakuatsiya, sog'liqni saqlash, sanitariya, epidemiya, Qashqadaryo, front.

Annotatsiya: Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston SSRda tibbiy infratuzilma sezilarli rivojlandi. Respublikaga millionlab aholi va yuzlab korxonalar evakuatsiya qilinishi sog'liqni saqlash tizimini qayta tashkil etishni taqozo etdi. Yuzdan ortiq

harbiy gospitallar tashkil etildi, ular yaralangan jangchilar va evakuatsiya qilingan aholiga xizmat ko'rsatdi. Gospitallar ishida mahalliy shifokorlar bilan birga evakuatsiya qilingan tibbiyot xodimlari ham qatnashdi. Shifoxonalar soni va o'rinlari ko'paydi, sanitariya tadbirlari epidemiyalarning oldini oldi. Qashqadaryo misolida mobil punktlar va frontga yordam qo'mitalari faoliyati o'rganilgan.

РАЗВИТИЕ МЕДИЦИНСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ГОСПИТАЛЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Алишер Бозорович Парномов

Учитель истории и исследователь,

Общеобразовательная школа №75

Эл. почта: alisher260380@gmail.com

Шахрисабз, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Вторая мировая война, Узбекская ССР, медицинская инфраструктура, госпитали, эвакуация, здравоохранение, санитария, эпидемия, Кашкадарья, фронт.

Аннотация: В годы Второй мировой войны в Узбекской ССР медицинская инфраструктура значительно развивалась. Эвакуация миллионов людей и сотен предприятий потребовала реорганизации системы здравоохранения. Было создано более ста военных госпиталей, которые обслуживали раненых солдат и эвакуированное население. В работе госпиталей участвовали как местные врачи, так и эвакуированные медицинские работники. Количество больниц и коек увеличилось, санитарные мероприятия предотвратили эпидемии. На примере Кашкадарьинской области рассмотрена деятельность мобильных пунктов и комитетов помощи фронту.

Kirish. Ikkinchi jahon urushi jahon xalqlari hayotida chuqur iz qoldirgan tarixiy voqea hisoblanadi. Urush yillarida frontdagi janglar bilan birga, mamlakatning ichki hududlarida ham turli sohalarda juda katta o'zgarishlar yuz berdi. Shu jihatdan O'zbekiston SSR ham strategik hudud sifatida urushning og'ir yukini his etdi. Millionlab aholi va yuzlab sanoat korxonalarining respublikaga evakuatsiya qilinishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va tibbiy sohalarda ham katta o'zgarishlarni taqozo etdi. Evakuatsiya qilingan aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, frontdan qaytib kelgan yaralangan jangchilarni davolash hamda epidemiyalarning oldini olish dolzarb masalaga

aylandi. Shu sharoitda O'zbekistonda tibbiy infratuzilmani qayta tashkil etish va uning rivojlanishi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan O'zbekistonga millionlab aholi va yuzlab sanoat korxonalari evakuatsiya qilindi. Bu holat respublikada tibbiy infratuzilmani keskin kengaytirish va qayta tashkil etishni taqozo etdi. Evakuatsiya qilingan aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish asosan tuman shifoxonalari, uchastka shifokorlari va sanitarlar zimmasiga yuklatildi. Ular xonadonmaxonadon yurib, sanitariya-gigiyena tadbirlarini amalga oshirdilar. Kolxozlarga joylashtirilgan evakuatsiya aholisi dezinfeksiya ishlariga jalb etildi, bunday choralar epidemiyalarning oldini olishga xizmat qildi. Bu jarayonda evakuatsiya qilingan aholining salomatligini muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

Shunday sharoitda nafaqat fuqarolar, balki frontda jarohat olgan harbiylar uchun ham tibbiy xizmatni samarali tashkil etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Urush yillarida respublikada harbiy gospitallar faoliyati keng yo'lga qo'yildi. 1941–1945 yillarda O'zbekistonda jami 40 ming o'rindan iborat 110 dan ziyod harbiy gospital ishlagan bo'lib, ular tarkibiga Sog'liqni saqlash xalq komissariatiga qarashli 47 ta gospital, 48 ta evakuatsiya gospitali va 9 ta kasaba uyushmalari gospitali kirgan. Keyinchalik raqamlar aniqlanib, respublikada umumiy gospitallar soni 129 tani tashkil etgani ma'lum qilindi [1; 21]. Gospitallarni tashkil etish jarayonida maktablar, klublar, teatr binolari va oliy o'quv yurtlari binolari bo'shatib berildi. Gospitallarning samarali ishlashida respublikadagi malakali shifokorlar bilan birga evakuatsiya qilingan tibbiyot xodimlari ham katta rol o'ynadi. Shu bilan birga, akademik V. Filatov, N. Bogoraz kabi taniqli olimlar ilmiy va amaliy ishlar bilan shug'ullanib, tibbiy xizmat sifatini oshirishga hissa qo'shdilar [2; 528].

Urush sharoitida respublika tibbiyot infratuzilmasi sezilarli rivojlandi. Agar 1941 yilda O'zbekistonda 368 ta shifoxona va 19 498 o'rin mavjud bo'lgan bo'lsa, 1945 yilga kelib ular soni 481 taga, shifoxona o'rinlari esa 24 848 taga yetdi. Bu ko'rsatkichlar respublika sog'liqni saqlash tizimida evakuatsiya va mehnat safarbarligi orqali muayyan tiklanish va rivojlanish ta'minlanganini ko'rsatadi. Gospitallar va tibbiy muassasalarga mahalliy korxona va xo'jaliklar sheflik qilib, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan ta'minlab turdilar. Bu ijtimoiy hamjihatlik va davlat-jamiat hamkorligining amaliy ko'rinishi sifatida tarixda qoldi [3].

O'zbekiston sog'liqni saqlash organlari uchun eng murakkab vazifalardan biri - evakuatsiya qilingan gospitallarning faoliyatini tashkil etish, ish jarayonini yo'lga qo'yish hamda yaradarlar va bemorlarni davolash bo'ldi. Odatda, harbiy gospitallar shahar hududlarida, temir yo'l stansiyalariga yaqin joylashtirilar edi. Bunday gospitallar uchun maktablar va oliy ta'lim muassasalari, klublar va teatr binolari bo'shatib berilgan. 1941 yil dekabr oyiga kelib, respublika

hududida 96 ta evakuatsiya qilingan shifoxona va 31,7 mingga yaqin davolash muassasalari faoliyat ko'rsatgan [3; 20].

Tibbiy infratuzilmaning qayta taqsimlanishi respublikada mavjud resurslarni samarali safarbar etishning amaliy misoli sifatida xizmat qildi.

Urush yillarida O'zbekiston hududida jami 113 tadan ortiq harbiy gospital joylashtirilgan bo'lib, ularga 750 ta korxona, muassasa, kolxoz va sovxozlar sheflik qilgan. 1942 yilda nogironlar maxsus ro'yxatga olingan, ularga moddiy yordam ko'rsatilgan va aksariyati mehnatga joylashtirilgan. Evakuatsiya qilingan yetim bolalar va yaralangan jangchilar haqida ham alohida g'amxo'rlik ko'rsatilgan. Harbiy gospitallar asosan Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida joylashgan edi [4; 528] degan ma'lumotlar ham 2020 yilda yangilandi va ko'chta harbiy gospitallar 129 tani tashkil etganligi aniqlandi, ya'ni bu avvalgi raqamlardan 16 ta ko'pligini ko'rsatadi [5; 35].

1943 yilga kelib respublikaning boshqa viloyatlari qatorida Qashqadaryo viloyatida ham mavjud tibbiy muassasalar soni cheklangan, mavjudlarining moddiy-texnik bazasi esa yetarli emas edi. Urush frontlariga minglab shifokor va hamshiralar safarbar etilgani sababli, mahalliy tibbiy muassasalar ko'p hollarda feldsher va sanitarlar zimmasida qoldi. Masalan, O'zbekiston SSR Sog'liqni saqlash xalq komissarligining 1944 yilgi hisobotida aytilishicha, viloyatdagi tuman kasalxonalarida tibbiy kadrlar ta'minoti 45 - 50% atrofida bo'lgan [6].

Xulosa qilib aytganda viloyatdagi eng muhim kasalliklar qatorida yuqumli kasalliklar, ayniqsa, bezgak, dizenteriya va sil alohida o'rin tutgan. Qishloq joylarda aholi orasida sanitariya-gigiyena madaniyatining pastligi, toza ichimlik suvi ta'minotining yomonligi salomatlikka jiddiy xavf tug'dirgan. Qashqadaryodagi frontga yordam komitetlari ko'magida bir nechta harbiy gospital va mobil feldsher punktlari tashkil etildi. Ayniqsa, urushdan qaytgan nogiron askarlar uchun rehabilitatsiya imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da, bu masalaga e'tibor qaratila boshlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Советская пропаганда в годы Великой Отечественной войны: «Коммуникация убеждения» и мобилизационные механизмы. - М.: РОССПЭН, 2007. – С. 21
2. Хайназаров Б.Б. Медицинская помощь Узбекской ССР эвакуированным народам в годы войны. Военно-исторические аспекты жизни Юга России XVII–XXI вв.: вопросы изучения и музеефикации: III международная научно-практическая конференция (2021; Волгоград): [материалы]. – Волгоград: Сфера, 2021. – 528 с.
3. Муминова Г.Э. История системы здравоохранения в Узбекистане в советский период (1917–1991 гг.). Автореферат диссертации доктора исторических наук (DSc) // Ташкент. – 2018.

4. Хайназаров Б.Б. Медицинская помощь Узбекской ССР эвакуированным народам в годы войны. Военно-исторические аспекты жизни Юга России XVII–XXI вв.: вопросы изучения и музеефикации: III международная научно-практическая конференция (2021. Волгоград): [материалы]. – Волгоград: Сфера, 2021. – 528 с.

5. Saidov Akmal . G'alaba bog'i falsafasi.-Toshkent: 2021. -B. 35.

6. O'zbekiston Respublikasi MDA fond - 2512, ro'yhat - 1, ish – 223.